Албатта бозор муносабатлари бўлиши учун кичик бизнеснинг улуши юқори булиши керак бўлади. Бозор муносабатларини тез қарор топтириш ва ижтимоий-иктисодий тизимдаги дахлдорлигини ошириш кичик бизнеснинг мавқеи билан ўлчанади.

5. ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР. Тиббий хизматлар бозорининг ҳозирги замонавий ҳолати ижтимоий маҳсулотнинг оммавийлиги, стандартлаштирилиши ва тизимили тарзда ишлаб чиқилиши, хизматлар таклифининг ихтисослашуви ҳамда диверсификацияси ва уни сотишнинг замонавий шакллари билан ифодаланмоқда. Бу ҳол тиббий хизматлар бозорини ҳаракатлантирувчи куч бўлиб хизмат қилмоқда.

Тиббий хизматлар кўрсатишда давлат томонидан олиб борилаётган ижтимоий сиёсатнинг натижаси ўз аксини топади. Давлатнинг ижтимоий

² Муаллиф томонидан тузилган

сиёсатидан ижтимоий инфратузилмани шакллантириш ва уларнинг доимий фаолиятини таъминлаш, ижтимоий ёрдам ва хизматлар кўрсатиш, инсон капиталини тиклаш ҳамда аҳолини муносаб турмуш даражаси билан таъминлашга қаратилган ички сиёсат тушинилади.

Тиббий хизматларда инсон капитали бозор иқтисодиётини шакллантириш мақсадида Ўзбекистонда давлатнинг олиб бораётган ижтимоий сиёсати айнан ижтимоий хизматларни ривожлантириш бўйича тадбирларни амалга ошириш орқали рўёбга чиқади. Ижтимоий хизматлар фаолиятидан давлатнинг ижтимоий йўналтирилганлиги маълум бўлади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

1. Райимбердиева О.Р. Соғлиқни сақлаш муассасаларини молиявий таъминлашни ташкил қилиш. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. автореферати. -Т.: 2001 – 21 б.
2. Раҳмонов Д.А. Ўзбекистонда ижтимоий соҳани молиялаштиришнинг методологик асосларини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати: - Т.: БМА, 2018-72 б.
3. Сайдов К.С. ва бошқалар. Социал иқтисодиёт. –Т.: Ўзбекистон, 2006. – 365 б.
4. Султонова А.Ў. Соғлиқни сақлашни бозор муносабатлари орқали тартибга солишининг халқаро амалиёти. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. -Т.: ТДИУ, 2001. – 21 б.
5. Туртаев М.Р. Маркетинг медицинских услуг в условиях рыночных реформ и пути его совершенствования. Автореферат дис. на соиск.учен.степени к.э.н. - Т.: ТГЭУ. 2005 - 23 с.
6. Умурзақова М.Н. Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишда тиббий суғуртани ривожлантириш истиқболлар и.ф.ф.д. (Phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. -Т.: ТДИУ, 2021. – 26 б.
7. Базаров З.Х. Ўзбекистонда тиббий суғурталаш амалиётини такомиллаштириш. и.ф.ф.д(Phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. -Т.: ТДИУ, 2021. – 26 б.

8. Хайруллаева Т.Г. Социально-экономические аспекты реформирования здравоохранения Республики Узбекистан в новых экономических условиях. Автореферат дис. на соиск.учен.степени к.э.н. -Т.: АН РУз. 2004 - 26 с.;
9. Қодиров А.А. Тиббиёт тарихи.-Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2005. – Б 54.
10. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидағи (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. – Т.: “Ўзбекистон”, 2011. – Б. 21.
11. Ўзбекистон республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги пф-4947-сонли фармони <https://lex.uz/docs/3107036>.

CHET EL INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI PROFESSIONAL TA`LIMDA QO`LLASH

Maxkamova Oltinoy Mirzarahim qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada professional ta`lim muassasalarida chet el innovatsion texnologiyalaridan foydalanish orqali samaradorlikka erishish shartlari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayonlar, bilimlar iqtisodiyoti.

KIRISH

Ayni paytda innovatsion faoliyat bo‘yicha bir qator kamchiliklar mavjudligini qayd etish joiz. *Birinchidan*, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mas’ul vazirlik va idoralar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik lozim darajada emas, ilmiytadqiqot muassasalar va laboratoriylar faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmaganligi; *ikkinchidan*, ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish past darajada ekanligi; *uchinchidan*, innovatsion menejment sohasida texnologiyalar transferini faol ilgari surish va amalga oshirishga qodir yuqori malakali mutaxassislarning yetishmasligi; *to‘rtinchidan*, ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan moliyalashtirish samarali va shaffof emas, budgetdan tashqari va xususiy jamg‘armalar mablag‘larini jalb etishni rag‘batlantirish mexanizmlari mavjud emasligi.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Innovatsiya” tushunchasi o‘zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX-asrning boshida Avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushu terminni ilmiy qo‘llashga kiritgan dastlabki olimlardan hisoblanadi. O‘zining “ijodiy halokat” nazariyasi asosida innovatsion jarayonlarni o‘rganib chiqdi va tadbirkorlarning faoliyatini yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishda mavjud narsalardan foydalanishni boshqa zamonaviy usullar sifatida ko‘rib chiqishni taklif qildi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘rta maxsus professional ta’lim texnikumlarda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, boshlang‘ich professional va o‘rta professional ta’lim negizida davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshirilishi belgilangan. Professional ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichlarini joriy etish orqali mehnat bozori uchun malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni ham

keng jalb etishdan iborat. Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogika va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida yo‘nalishga bo‘lgan qiziqishi kundan-kunga kuchayib bormoqda, Bunday bo‘lishining sabablaridan biri shu vaqtga qadar ananaviy ta’limda talim oluvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari izlab topishlariga, mustaqil o‘rganishi taxlil va xatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi, hamda nutqi ravon shakllanadi, dunyo qarashi kengayadi. Ta’lim beruvchi bu jaryonda shaxsiy shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi, tarbiyalanishiga zamin yaratadi va shu bilan birga boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Innovatsion texnologiya ta’lim berish bilan birga tarbiyaning ham roli yuqori ekanligini ko‘rsatib beradi,bunda:

- Jamoa bilan ishslash;
- Xushmuomilalik;
- Xushfe’lllik;
- O‘zgalar fikriga hurmat;
- Faollik
- Raxbarlik faoliyatini shakllantirish ;
- Dunyoqarashining kengaytirish;
- Nutqning ravon va tekis bo‘lishi;
- Jamoaviy izlanish ;
- Tortinmasdan o‘z fikrini aytish vujudga keladi.

Demak, innovatsion texnologiya asosida ilmiy konsepsiya ta’lim - tarbiya orqali ta’lim oluvchilarda maqsadga erishi uchun falsafiy, psixologik,ijtimoiy pedagogik va didaktik asoslarni qamrab oladi. U ta’lim- tarbiya va o‘quvchi shaxsini rivojlantirilishini loyihalashtirish, amalga oshirish, natijalarini nazorat qilib baholashdan iborat uzviy bog‘liq bosqichlarini o‘z ichiga qamrab oladigan tizim.

Texnologiya, shakl, metodlari va treninglari “Aqliy xujum” guruhlararo ishlarda qo‘llaniladi, o‘qituvchi savol mavzusi muhokama muammoni hal etish asosida tashkil etiladi . Bu turli g‘oyalari ilhom bilan ishslash,ishga qizg‘inlik va rag‘batlantirishga yetaklovchi metoddir [5].

“MULOQOT” treningi –dars jarayonida mustaqil fikrlashga, erkin holda bayon etish, bahslashish madaniyatni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib kichik guruhlarda o‘tkaziladi .

“BUMERANG” texnologiya–dars jarayonida darsdan tashqari turli adabiyotlar matnlari bilan ishslash o‘rganilgan mavzuni yodda saqlash, so‘zlab berish fikrini erkin bayon etish asosida tashkil etiladi va bir dars davomida barcha o‘quvchilar baholanadi.

“F S M U” texnologiyasi –fikrini bayon etish, fikr bayoniga sabab, sababni tushuntiruvchi misol (isbot) fikrni umumlashtirish asosida tashkil etiladi . “VEER” texnologiyasi –bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi

har biri tomonlari, afzallik fazilatlari va kamchiliklari foyda va zararlari belgilanadi. Bunda tanqid, tahlil, aniq fikr og‘zaki shaklda bayon etiladi va himoya qilinadi .

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqoridagilar asosida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- jamiyatda “innovatsiya” va “innovatsion faoliyat” tushunchalarini mazmun va mohiyatini anglashi uchun zarur bo‘lgan bilim. Ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish ko‘lamini kengaytirish;
- yangi qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun va mohiyatini ommaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish;
- innovatsion infratuzilmaning sub’ektlari innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, vechur tashkiloti, innovatsiya markazi kabilar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni jadal rivojlanishini ta’minlash;
- innovatsion klasterlar faoliyatlarini tizimli tashkil etish kabilarni amalga oshirish natijasida Respublikada innovatsion faoliyat yanada rivojlanadi va uning oqibatida innovatsion faoliyatning sifati va samaradorligi ta’minlanadi. Yangi innovatsiyalar paydo bo‘ladi, insonlar yangilikka intiladilar.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-630-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020 yil O‘RQ- 637-son.
3. Otaqulovich, K. K. (2021). MUSEUM EXHIBITIONS AND EXHIBITIONS IN UZBEKISTAN ARE WORLDWIDE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 342-346.
4. Khosiyatov, K. O. (2020). The influence of the museum of local lore in Karshi on the spirituality of young people. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 06 (86), 686-692.
5. Khosiyatov, K. O. (2019). HISTORY OF KASHKADARYA MUSEUM CULTURE. *Theoretical & Applied Science*, (12), 223-226.
6. Хосиятов, X. О. (2023). Қашқадарё Вилоятлари Музейларида Кўргазмаларни Ташкил Этиш Жараёнлари. *Miasto Przyszłości*, 36, 225-229.
7. Хосиятов, X. (2023). Жанубий Ўзбекистон музейларида халқаро ташкилотлар ва хорижий мамлакатлар билан ўзаро алоқалар. *Марказий Осиё тарихи ва маданияти*, 1(1), 509-512.
8. Baydedayev A., Mamadazimov M.. Djorayev M va boshq. Maktabda fizika va astronomiya o‘qitish. Metodologik va dunyoqarash aspektlari. - T.: O‘qituvchi, 1994.

9. Elchiboyeva, N., & Tursunnazarova, E. T. (2022). TEACHING GRAMMAR THROUGH AUTHENTIC TEXTS. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 205-207.
10. Yusubjonova, M. I., Vallamatova, S. S., & Tursunnazarova, E. T. (2022). CONSECUTIVE TRANSLATION AND ITS PECULIARITIES. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 50-55.
11. Tursunnazarova, E. T. (2022). THE USE OF LITERATURE IN THE LANGUAGE CLASSROOM. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 196-200.
12. Yuldasheva, N. E., Yusupova, S. T., Bakhtiyorov, M. Y., Abdujabborova, M. A., & Abdurashidova, N. A. (2021). Pragmalinguistic aspects of compound nouns in English and Uzbek. *Linguistics and Culture Review*, 5(S2), 1431-1438.
13. Yakubovich, B. M. (2021). The role of transposition in the derivation of related words. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 301-308.
14. Kodirova, N. A. (2021). Syntactic and semantic analysis of trivalent syntactic units. *Science and Education*, 2(Special Issue 2), 114-117.
15. Ochilova, N. (2023). SHAPING THE THINKING OF YOUTHS BY PROMOTING THE IDEA OF NATIONAL RECOVERY NATIONAL UPGRADE. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(10), 75-79.
16. Очилова, Н. (2023). РОЛЬ ЧТЕНИЯ В ДУХОВНОМ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(6), 74-77.
17. Очилова, Н. Р. (2023, April). ЯНГИ РЕНЕССАНС ДАВРИДА ЛИДЕРЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ ЁШЛАРНИНГ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 2, No. 3, pp. 92-101).
18. Ochilova, N. R. (2023). TYPOLOGY OF CIVILIZATIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 121-127.
19. Ochilova, N. R. (2023). THE IMPORTANCE OF MORAL EDUCATION OF YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 25-28.
20. Ruzimuratovna, N. O. (2023). Shaping the Thinking of Youths by Promoting the Idea of National Recovery-National Upgrade. *American Journal of Science on Integration and Human Development*, 1(2), 40-42.
21. Адилова, Г. А. (2012). Этнографизмы в языке казахов, проживающих в Каракалпакстане. *Вестник Челябинского*

- государственного университета, (2 (256)), 5-8.
22. Agytaevna, A. G. (2023). FUNCTION OF LANGUAGE IN PRESERVATION OF NATIONAL ETHNO-CULTURAL INFORMATION (on the example of materials of the Kazakh language). *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 151-156.
23. Адилова, Г. А. ҚАРАҚАЛПАҚСТАН ҚАЗАҚТАРЫ ТІЛІНДЕГІ ТОЙ ДӘСТҮРЛЕРИНЕ БАЙЛАНЫСТЫ ЖЕРГІЛІКТІ ӘТНОГРАФИЗМДЕР.
24. Seytniyazova, G., & Atashova, F. (2022). THE CATEGORY OF PLURALITY IN RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(1), 74-78.
25. Gafurov, B. Z. (2022). Analysis of medical version in texts of advertising of hygiene products in the fight against COVID-19 (on the material of Russian and Uzbek languages). *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*.
26. Gafurov, B. Z. (2021). Study of advertising texts in Russian on the topic of medical terminology. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)*.—Indonesia, 26(1), 586-590.
27. Гафуров, Б. З. (2021). АНАЛИЗ ЛИНГВОСТАТИСТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ АКЦЕНТНЫХ ФОНОВАРИАНТОВ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ РУССКОГО ЯЗЫКА. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(1-1).
28. Gafurov, B. Z. (2021). Medical terminology in advertising text. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(3), 30-40.
29. Gafurov, B. Z. Similarities and differences of segment background options for Russian, Uzbek and English languages. *Monografia pokonferency jnascience, Research, development*, 26, 17-19.
30. Гафуров, Б. З. Тексты С Фоностилистическими Фоновariantами И Их Перевод (На Материале Узбекского Языка). *Ilm Hám Jámiyet*, 72.
31. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-576сон.
32. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.2018, 19-20-betlar.
33. Shumpeter J. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. M., Direct-Media, 2017. 4.
34. Santo B. Innovatsiya va global intellektualizm // Innovatsiyalar. - 2016 yil - 9-son

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI IZCHIL O'ZGARISHLAR

Abdumòminova Farangiz Yolqin qizi

Kamoliddin Bexzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti

Amaliy san'at fakulteti

Me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash yunalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mustaqilligimizning 33 yilligiga bag'ishlanadi. Yurtimizdagi Mustaqillik yillarida bo'layotgan quvonarli o'zgarishlar va rivojlanishlar haqida fikrlar yuritildi.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, yo'llar, ko'priklar, tarix, kelajak, ta'lif, fan, madaniyat, tashabbus.

Kirish

Istiqlolning ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. U biz uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Odamlarimiz ko'ksiga shamol tegdi, yelkasi oftob ko'rди. Erkin va farovon hayot barpo etishga bo'lgan chin istak-xohish paydo bo'lib, kelajakka ishonch tuyg'ysi uyg'ondi. Milliy an'ana hamda qadriyatlarimiz qayta tiklandi, ajdodlarimizga xurmat-ehtirom ko'rsatildi. O'z navbatida, boshlangan ulkan qurilish va obodonlashtirish ishlari tufayli shaharu qishloqlarimiz qiyofasi o'zgarib, zamonaviylashib borayotir. Ta'lif muassasalari, yo'llar, ko'priklar, sport majmualari barpo etilayapti. Qisqasi, inson baxtli yashashi uchun nimaiki zarur bo'lsa, barchasi muhayyo qilinmoqda. Mana yaqinda mustaqillik degan ulug' ne'matga, bebaho boylikka erishganimizga ham 33 yil to'ldi. Bugun o'zbek diyori o'zgacha ko'rkka, havas qilarli husnga ega. Chiroyi kundan kunga oshib, yashnab bormoqda. Mustaqillikka erishganimizdan beri qilinayotgan o'zgarish va yangilanishlar maqtanishga arziydi. Mamlakatimizda barcha sohalarda dadil islohotlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarini zamon talablariga moslagan holda yangilash, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Tashabbus va takliflar qo'llab -quvvatlanib, moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab kelinyapti. Bunday keng ko'lamli ishlar natijasi har jabhada sezilmoqda. Fan va madaniyat, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, turizm, qurilish, qishloq xo'jaligi taraqqiyoti, farmaseftika, meditsina, televediniya, radio, kinomatografiya... Bularning xar biri ulkan mavzu, bir katta kitob, soatlab, kunlab gapirib, madx etib tugamaydigan bir olamdir.

Zamon talablariga mos yurish bilan birgalikda, milliylik bilan hamohang tazrda olib borilayotgan islohotlar, yurtdoshlarimiz uchun nihoyatda shinam va ko'r kam uy

- joylar, qulay o'qishxona va darsxonalar, maktab va universitetlar, ko'pgina imtiyozlarga ega bo'lgan kasb – hunar maktablari, zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlangan va ta'mirlangan, yangitdan qurilgan shifoxonalar, sayyoohlar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelayotgan turistik bino majmualari, mehmonxonalar, yurtdoshlarimiz vaqtini yanada mazmunli o'tkazilishini maqsad qilib bunyod etilgan istirohat bog'lari hamma- hammasi Buyuk Mustaqilligimizning, go'zal Vatanimizning bag'ri keng, issiq yuz Xalqimizga beminnat tuxfasi deb bilishimiz kerak. Yurtimizdagi o'zgarishlarni jahon hamjamiyati ham tan olmoqda. Xususan, dunyodagi eng nufuzli nashrlardan biri bo'lgan Buyuk Britaniyaning "Ekonomist" jurnali O'zbekistonni 2019-yildagi eng jadal islohotlarni amalga oshirgan davlat - "Yil mamlakati" deb e'tirof etdi. Islohotlar 2024-yilda ham davom etib, o'z sonini oshirimoqda.

Asosiy qism

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilindi. Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida „O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida“gi qaror va „O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari“ to'g'risida qonun qabul qilindi. Qaror bilan O'zbekiston SSR nomi ham O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. 1-sentyabr O'zbekistonning mustaqillik kuni deb belgilab qo'yildi.

2021- yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruva akademiyasida "Yangilanayotgan O'zbekiston uchun yangi avlod kadrlari" mavzusidda xalqaro konfrensiya tashkil etildi. Ushbu konfrensiya har bir yosh uchun qiziq bo'ldi. "El – yurt umidi" jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan bu anjumanda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada, Yaponiya, Avstraliya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan 18ta davlatdan kelgan 300dan ziyod "Umid" jamg'armasi bitiruvchilari ishtirok etdi. Bu 300 o'zbek bitiruvchilari yosh polaponlik kezlarida vatan tomonidan qo'llangan, go'yoki ilk qadamlarini onasi qo'lidan tutib tashlovchi go'dak singari, kelgusi hayot yo'lida Vatanga suyangan yoshlari edi. Ular ishtirokida o'tkazilgan ushbu anjuman bitiruvchilar o'rtaida doimiy aloqa o'rnatish uchun o'ziga xos platforma sifatida tashkil etildi. Konfrensiya ko'pchilik uchun qiziqarli bo'lganini isbotlovchi dalillardan biri <http://conference.eyuf.uz> sayti orqali 600dan ziyod yosh avlodning ro'yxatdan o'tganidir. Barchamizga ma'lumki, ushbu yilda fan, madaniyat, adabiyot, san'at sohasida bir qancha yangilanishlar, islohotlar, turli masalalarni hal qilishga qaratilgankonfrensiyalar tashkil etildi. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida Buxoro, Nukus, Samarqand, Guliston, Urganch shaharlarda IT- parklar tashkil etilishini,

yaqin yillar ichida barcha qishloq va mahallalarda tezkor internet xizmati yo'lga qo'yishni ta'lim sohasida esa davlat grantlari sonini yanada ko'paytirish, qizlar uchun alohida grantlar tashkil qilishni, ona tili bo'yicha bilimlarni baholashning milliy test tizimi paydo bo'lishini aytib o'tgandilar va bu islohotlar xozirgi kunlarda Yurtimizda keng qollanilayotgani yoshlarimizga yaratilgan ulkan imkoniyatlar eshigi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, tarixiy sanalarga ham munosabat o'zgardi. Jumladan, 1991-yil —Alisher Navoiy yili, 1994-yil —Mirzo Ulug'bek yili, 1996-yil —Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Bahouddin Naqshband (1993), Feruz (1994), Imom Buxoriy (1998), Ahmad Farg'oniy (1998), Jaloliddin Manguberdi (1999) 800 yillik, Ajiniyoz Qo'ziboy o'g'li (1999), Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Moturidiy (2000), Abduxoliq G'ijduvoniy (2003), Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy (2004), Oybek (2005), Abdulla Qahhor (2007), Muhammadrizo Ogahiy, Hamid Olimjon (2009) va boshqa buyuk shaxslarning tavallud to'ylari keng miqyosda nishonlandi.

Qadimiy va hamisha navqiron, ko'hna va boqiy shaharlarimiz Buxoro, Xiva (1997) va Termizning (2000) 2500, Qarshining (2006) 2700, Marg'ilonning (2006) 2000, Samarqandning (2007) 2750, Toshkentning (2009) 2200 yillik yubileyalar o'tkazildi. Alpomish dostonining (1999) 1000, Avesto kitobining (2001) 2700 yilligini chinakam bayram sifatida tantana qilindi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo'qon. Shahrисabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Toptalgan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta'mirlandi, qayta tiklandi. Imom al Buxoriy, Imom at-Termizi, Abu Mansur al-Moturudi, Ahmad al-Farg'oniy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug' allomalarimizning sha'nlariga munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrисabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko'tardi.

Bugungi kunda mamlakatimizda etti mingdan ortiq yodgorlik, shu jumladan, 2500 ta me'moriy obida, 2700 tadan ortiq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. 1991 yildan Xivadagi Ichonqal'a qo'riqxonasidagi, 1993 yildan Buxoro shahri markazidagi, 2000 yildan Shahrисabz shahri markazidagi yodgorliklar Yuneskoning "Umumjahon madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi.

Mustaqillik, erk va ozodlik singari mo'tabar onlarning qo'lga kiritilishidajonbozlik ko'rsatgan, hatto o'z jonini-da ayamagan yurtdoshlarimiz, ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish borasida ham mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirildi, xususan, xalqimizning milliy o'zligini uyg'otish va mustahkamlash yo'lida butun hayyotini bag'ishlagan Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Ubaydulla Xo'jaev singari elimiz ardog'idagi insonlarning nomlarini abadiylashtirish uchun —Qatag'on Qurbonlari xotirasil muzeyi — O'zbekiston fan tizimidagi ilmiy-ma'riyyiy muassasa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Qatag'on qurbanlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida 2001 yil 1 maydag'i farmoni qabul qilindi va shuning asosida Toshkent shahrida —Shahidlar xotirasil yodgorlik majmui 2002 yil 31 avgustda barpo etildi.

2001 yildan buyon, "O'zbekturmiz" milliy kompaniyasi Buxoro mintaqaviy bo'limi hamda bir guruh hunarmandlar va turistik firmalar rahbarlari tashabbusi bilan Buxoro shahrida "Ipak va ziravorlar" an'anaviy festivali tashkil etiladi. Ushbu tadbiriga respublikamizning barcha viloyatlaridan turistik tashkilotlar, hunarmandlar, xorijiy va mahalliy sayyoohlar qatnashadilar. Festival doirasida ipak va ziravorlar savdosi va palov sayllari, milliy o'yinlar, sport musobaqalari va milliy liboslar namoyishi, hunarmandlarning mahorat namoyishlari va turli madaniy tadbirlar tashkil etilishi ushbu festivalning anana darajasiga ko'tarilishini ta'minladi. Ushbu dalillar mamlakatimizda xalqimiz ma'naviy merosiga bildirilayotgan chuqrur hurmat va e'tibordandalolat bo'lib, unio'rghanish, tadqiq etib, kelajak avlodga yetkazish borasida olib borilayotgan say-harakatlar davlatimizning ma'naviyat sohasiga ustuvor siyosat darajasida qarayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston mustaqilligining 33 yilligi "Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!" shiori ostida o'tkazildi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaror qabul qilar ekan, unga kora mehnatkash va bag'rikeng xalqning bunyodkorlik salohiyati bilan erishilayotgan ulkan natijalarning mazmun-mohiyati haqida mahallalar, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalarida ma'rifiy uchrashuv va suhbatlar o'tkaziladi. Mustaqillik bayrami munosabati bilan Ikkinchchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e'zozlash, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariiga kiritilgan hamda ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma'naviy yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlari o'tkazildi.

Ha, shuncha imkoniyat va yengillliklar yaratilgan yurtda yashagan har bir shaxs har nafasini “Vatan!” deya olsa arziydi. Yuqorida sanab o’tilganlar dengizdan tomchi, xamir uchidan kichik kulcha kabitidir. Negaki, bunday islohot va o’zgarishlar yildan yilga, har kuni o’z sonini oshirmoqda, ortmoqda. Taraqqiy etayotgan yurtimiz yorqin kelajak sari oldinga tomon odimlasa odimlayaptiki, aslo to’xtagan emas.

Shu bois mamlakatimizda bugungi kunda milliy urf-odat va qadriyatlarni asrab avaylash, ularni yosh avlod ongiga singdirish orqali boqiyligini ta’minalash borasidagi islohotlarni ko’rib, dunyo ahli hayratlanayotgani bejiz emas.

Xulosa

Ey, aziz yurtdoshim, zamondoshim Tarixning oltin zarvaraqlariga aylanayotgan har bir kunimizning qadriga yetaylik, imkoniyatlardan keng foydalanaylik. Yurtimizning tinchligiga, go’zalligiga shukrona aytib uning qadriga yetaylik, asrab avaylaylik. Zero, bizning xalqimiz uchun ma’naviy qadriyatlar hamisha qadrli va komil insonni tarbiyalashda yuksak ahamiyatga ega muhim vosita — ma’naviy ko’prik bo’lib hisoblanadi, kelajak avlodni ana shu ruhda tarbiyalash orqali milliyligimizni asrab-avaylash, milliy qadriyatlarimizni saqlash va avloddan-avlodga yetkazish, ayniqsa, biz yoshlар uchun doimo eng dolzarb masala bo’lib qoladi. Mustaqillik bizga milliy o’ziga xosligimizni, or-nomus va g’ururimizni, milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analalarimiz bilan faxrlanish hissini qaytargan bayram sifatida abadiy qoladi va jonajon Vatanimiz yilnomasiga oltin harflar bilan yoziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulzoda Baxtiyorovna Ergasheva, Shahinabonu Tohirova MUSTAQILLIK NE’MATIGA SHUKRONA QILISH VA UNING MUSTAHKAMLIGINI SHAQLASH // Scientific progress. 2021. №7.
2. A. N. Gulyamova MUSTAQILLIK YILLARDA AJDODLAR MA’NAVIY MEROJI VA MILLIY QADRIYATLARGA MUNOSABAT // Academic research in educational sciences. 2022. №3.
3. Tyurikov V., Shagulyamov R.. Mustaqil O’zbekiston Respublikasi: unutilmas voqealar va sanalar Nashr-2, 10000 ækz, Toshkent: O’zbekston, 1998. ISBN 5-640-02328-7
4. Atabayeva, N., Abdusamadova, G., Xusanova , F., & Abdukarimova , G. (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA O’ZBEKISTONDAGI MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT. Ilm-Fan Va ta’lim, (6(21).
5. Tarixiy obidalar - O’zbekistonning tarixiy obidalari https://uztarix.narod.ru/tarixiy_obidalar.html

KARBAMID-FORMALDEGID ASOSIDAGI MODIFIKASIYALANGAN OLIGOMERLAR OLISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

**Karimova Zarnigor Mansurovna
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti**

Qo'llanilishi: kimyo va yog'ochga ishlov berish korxonalarida bog'lovchi va yog'och kompozit materiallari ishlab chiqarishda. O'zgaruvchan kislotali muhitda karbamid, formaldegid va modifikatsiya qiluvchi vositani birgalikda kondensatsiya qilish, so'ngra karbamidning qo'shimcha qismi bilan postkondensatsiya qilish, qatronni sovutish va barqarorlashtirish orqali modifikatsiyalangan karbamid-formaldegid qatronini ishlab chiqarish usulini tavsiflaydi. Bu formulaning tetrafunktional siklik amidi modifikatsiya qiluvchi vosita sifatida ishlatilishi bilan farq qiladi.

Bunda avval karbamid va formaldegidning kondensatsiya aralashmasi tayyorlanadi, so'ngra har bir mol karbamid uchun 0,0075-0,03 mol miqdorida modifikatsiya qiluvchi vosita kiritiladi va birgalikda kondensatsiya qilinadi, so'ngra kondensatsiyadan keyin, qatronni sovutish va barqarorlashtirish amalga oshiriladi. Texnik natija 5 mg / 100 g dan ko'p bo'limgan formaldegid emissiyasi bilan taxta materiallarini olish imkonini beruvchi past zaharlilik bilan o'zgartirilgan qatron ishlab chiqarishdir.

Karbamid-formaldegid smolasini ishlab chiqarishning ma'lum bir usuli mavjud: poliyeten poliaminlar ishlab chiqarishdan olingan natriy xlorid chiqindilari - modifikatsiya qiluvchi vosita ishtirokida qizdirilganda o'zgaruvchan kislotali muhitda karbamid va formaldegidning suvli eritmasini bosqichma-bosqich kondensatsiya qilish orqali.

Ma'lum bo'lgan qatronlar oz miqdordagi erkin formaldegidni o'z ichiga oladi, zarrachalar plitalarining etarlicha yuqori fizik-mexanik xususiyatlarini ta'minlaydi va 9-10 mg / 100 g abs formaldegid chiqaradigan taxta materiallarini olish imkonini beradi.

Karbamid va formaldegidni 1,2 molyar nisbatda aralashtirish natijasida olingan karbamid o'z ichiga olgan moddalarning suvli eritmasini birinchi bosqichda kondensatsiya qilish reaktsiyasini o'tkazish orqali ko'p bosqichli usulda karbamid-formaldegid smolasini olishning ma'lum usuli ham mavjud. 2:1,0 yoki kompozitsyaning alohida moddalarini aralashtirish yo'li bilan, %: karbamid 11,4 - 20,9, monometilolureya 24,9-33,1, dimetilolureya 4,2-9,2, formaldegid 1,9-2,4,

qolgan qismini formaldegid bilan sug‘orib, karbamidning molyar shakli: 1,5:1,5. - 2.1, ikkinchi bosqichda, hosil bo‘lgan eritmaning kondensatsiya reaktsiyasi ozgina kislotali muhitda amalga oshiriladi, so‘ngra kondensatsiya mahsulotinisovutish va bug‘lash, uchinchi bosqichda hosil bo‘lgan mahsulotga karbamidning qo‘sishimcha qismi kiritiladi. 1,0 molyar nisbati uchun: 1,20-1,15 va oldindan kondensatsiya qatronlar sovutish va barqarorlashtirish ortidan amalga oshiriladi.

Ma’lum bo‘lgan qatron yuqori quruq qoldiq va erkin formaldegidning past miqdoriga ega va suv bilan yaxshi aralashadi. Unga asoslangan zarrachalar taxtalaridan formaldegidning chiqishi 6,0-7,0 mg/100 g ni tashkil qiladi.

Bo‘yoqlar, yopishtiruvchi moddalar va shisha bilan to‘ldirilgan kompozitsiyalarni sanoat ishlab chiqarishda glikoluril modifikator sifatida ishlatiladi. Glikoluril (tetragidroimidazo-[4,5-d]-imidazoldion-2,5) glioksal va karbamidning o‘zaro ta’siri mahsulotidir.

Ma’lum bo‘lgan qatronlar tayyor mahsulotlarning yaxshi fizik-mexanik xususiyatlariga ega va formaldegid emissiya sinfidagi taxta materiallarini olish imkonini beradi, ammo ulardan formaldegid emissiyasi 6-10 mg / 100 g abs. quruq ekologik toza materiallar uchun zamonaviy talablarga javob bermaydigan plitalar, xususan, ma’lum qatronlar asosida, EO emissiya sinfidagi materiallarni olish mumkin emas (5 mg / 100 g dan ko‘p bo‘lmagan).

Taklif etilayotgan usulga eng yaqini karbamidni formaldegid bilan kondensatsiya qilish yo‘li bilan modifikatsiyalangan karbamid-formaldegid smolasini olish usuli bo‘lib, avval ishqoriy muhitda, so‘ngra kislotali muhitda 1 mol ga 0,0007-0,035 mol poliyetilen poliaminlar ishtirotkida. karbamid va formaldegidning umumiylisbatil 1 bo‘lgan karbamid: mos ravishda 1,1 -2, 2. Modifikatsiya qiluvchi vosita sifatida umumiyl formulali poliyetenpoliaminlar ishlatiladi

Ma’lum bo‘lgan modifikatsiyalangan karbamid-formaldegid qatoni erkin formaldegidning chiqishi tufayli yuqori zaharlilikka ega, bu esa 10-30 mg / 100 g taxta formaldegid emissiyasi bilan E2 sinfidan ko‘p bo‘lmagan taxta materiallarini olish imkonini beradi.

Ixtironing texnik maqsadi zaharliligi past bo‘lgan modifikatsiyalangan karbamid-formaldegid qatronini olishdir, bu esa 5 mg / 100 g dan ko‘p bo‘lmagan formaldegid chiqindilariga ega bo‘lgan taxta materiallarini olish imkonini beradi (zaharlilik sinfi EO).

Bu vazifaga modifikatsiyalangan karbamid-formaldegid smolasini ishlab chiqarishda tetrahidroimidazo-[4,5-d]-imidazoledion-2,5 (glikoluril) modifikatsiya qiluvchi vosita sifatida reaksiya aralashmasiga kiritilishi bilan erishiladi.

Tetrafunksional birikma bo‘lgan glikoluril formaldegid bilan kondensatsiya reaksiyasiga osongina kirib, metiolol hosilalarini hosil qiladi, shu bilan birga -N-CH₂-bog‘i metilolurealarga qaraganda kuchliroqdir, bu esa smolaning termohidrolitik barqarorligini oshiradi. To‘rtta -NH guruhining mavjudligi qatronlar tarkibidagi va mahsulotlarda uni quritish va yo‘q qilish paytida ajralib chiqadigan erkin formaldegidni bog‘lash nuqtai nazaridan ham ijobjiydir. Glikolurilning yuqori funksionalligi qattiqlashtirilgan qatronda ko‘proq o‘zaro bog‘lanishlarning paydo bo‘lishiga olib keladi, bu esa mahsulotlarning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilaydi. Qatronning suv bilan aralashuvchanligi ham ortadi, bu esa taxta materiallarini ishlab chiqarish texnologiyasida katta ahamiyatga ega.

Ixtironing mohiyati shundan iboratki, modifikatsiyalangan karbamid-formaldegid qatroni modifikatsiya qiluvchi vosita ishtirokida qizdirilganda kislotaligi o‘zgaruvchan muhitda karbamid va formaldegidni bosqichma-bosqich kondensatsiya qilish yo‘li bilan olinadi, ikkinchisi sifatida glikoluril ishlatiladi. Birinchi qismdagagi karbamidning 0,0075-0,03 mol/mol miqdorida glikolurildan foydalanish qatronning zaharlilagini kamaytirishga, shuningdek, unga asoslangan mahsulotlarning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilashga imkon beradi. Bunday holda, karbamid: glikoluril: formaldegidning oxirgi molyar nisbati mos ravishda 1 : (0,005-0,02) : (1,23-1,28).

Taklif etilgan modifikatoridan foydalanish quyidagi natijani olish imkonini beradi:

- hosil bo‘lgan modifikatsiyalangan karbamid-formaldegid qatroni kam zaharli: unda erkin formaldegid miqdori past; uning yordamida olingan taxta materiallari 5 mg / 100 g dan ortiq bo‘lmagan formaldegid chiqaradi va EO emissiya sinfiga tegishli;
- hosil bo‘lgan qatron, qattiqlashganda, mahsulotlarning fizik-mexanik xususiyatlarini oshiradigan yuqori mustahkam tuzilmalarni hosil qiladi;
- hosil bo‘lgan qatron suv bilan yaxshi aralashadi, bu uning texnologik xususiyatlarini yaxshilaydi;
- modifikatsiyalangan smola uzoq muddatli saqlash vaqtida o‘z xususiyatlarini saqlab qoladi, bu esa uni kimyo korxonalarida markazlashgan holda ishlab chiqarish va uzoq masofalarga tashish imkonini beradi.

O‘zgartirilgan karbamid-formaldegid smolasini olishning tavsiya etilgan usuli birinchi navbatda formaldegid : karbamid = 2 : 0,94-1,0 boshlang‘ich molyar nisbatda 30-40°C haroratda formaldegidda karbamidni eritib, kondensatsiya aralashmasini tayyorlashdan iborat, shundan so‘ng glikoluril olinadi. 0,0075-0,03 mol miqdorida qo‘shiladi. Keyin reaksiya ishqoriy muhitda pH = 7-8 va 96-100°С

haroratda olib boriladi. Ikkinch bosqichda pH = 4-5 va 96-100°S haroratda ozgina kislotali muhitda kondensatsiya reaktsiyasi amalga oshiriladi, so‘ngra kondensatsiya mahsulotinisovutish va vakuumda quritish; uchinchi bosqichda olingan mahsulotga karbamidning qo‘srimcha qismi karbamidning molyar nisbatiga kiritiladi: glikoluril : formaldegid = 1 : (0,005-0,02) : (1,23-1,28) va oldindan kondensatsiya ishqoriy muhitda amalga oshiriladi.

Adabiyotlar

1. Мещерякова, А.А. Механизм получения карбамидоформальдегидных смол. Лесотехнический журнал.
2. Юшкова О. Г. Иммобилизованные на твердофазных матрицах гетарилформазаны для концентрирования, разделения и определения металлов. – Екатеринбург.
3. Опенько В.В. и др. Изучение сорбции Fe(II), Co (II), Cd (II), Ni (II), Cu (II) и Zn (II) на силикагеле. Химия и химическая технология.4. Бурындина, В. Г. Синтез, свойства и применение карбамидоформальдегидного.
4. Торицин, А.В. Синтез и исследование свойств модифицированных аминами карбамидоформальдегидных смол.
5. Tomita, B. Analyses of cocondensation of melamine and urea trough formaldehyde with $^{13}\text{CNMR}$ [Текст] / B. Tomita, C. Hse, // Mokuzai Gakkaishi. - 1995.

УДК -616.43. /45-092-036.882-08

EVALUATION OF SOME INDICATORS AFTER SIMULATED CLINICAL MORTALITY IN FEMALE RATS

Kuliev Ozodjon Abdirakhmonovich

PhD., associate professor

Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Annotation. From the first day of the post-resuscitation period to the 21st day in rats that experienced clinical death, against the background of the dominance of the sympathetic nervous system of an increase in the amounts of FSH and LH, estradiol in the blood. On the 21st day of the post-intensive care period, the predominance of the activity of the prooxidant system of indicators of endogenous intoxication and a decrease in the coefficient of protein stability in reducing hormone synthesis in the reproductive system was established

Keywords. Autonomic nervous system, MDA, catalase, MSM254, MSM280 FSH, LH, estradiol, progesterone.

ОЦЕНКА НЕКОТОРЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПОСЛЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ КЛИНИЧЕСКОЙ СМЕРТНОСТИ САМОК КРЫС

Кулиев Озоджон Абдирахмонович

Phd.доцент

Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд,
Узбекистан

Аннотация. С первого дня постстреанимационного периода до 21-го дня у крыс, перенесших клиническую смерть, на фоне доминировании симпатической нервной системы увеличения количеств ФСГ и ЛГ, эстрадиола в крови обеспечивалась защитная адаптационная реакция. На 21-й день постстреанимационного периода установлено место преобладание активности прооксидантной системы показателей эндогенной интоксикации и снижения коэффициента устойчивости белка в снижении синтеза гормонов в репродуктивной системе

Ключевые слова. Автономная нервная система, МДА, каталаза, MSM254, MSM280 ФСГ, ЛГ, эстрадиол, прогестерон.

URG‘OCHI KALAMUSHLARNING MODELLASHTIRILGAN KLINIK O‘LIMIDAN KEYINGI BA’ZI KO‘RSATKICHLARI BAHOLASH

Kuliyev Ozodjon Abduraxmonovich

PhD., dotsent

Samarqand Davlat Tibbiyat Universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotasiya. Klinik o‘lim o‘tkazgan kalamushlarning postreanimatsion davrining birinchi kunidan boshlab 21-kungacha Simpatik nerv tizimining ustunligi ostida qonda VSG va LG estradiol gormonini miqdorini ortishi ostida himoya moslashu reaksiyasi ta’minlangan. Postreanimatsion davrning 21- kuning kelib, reproduktiv tizimida gormonlar sintizini pasayib borishida proksidant tizimining ustunligi endogen intoksikatsiya ko‘rsatkichlarini yuqori darajada saqlanishi va oqsilni chidamlik koeffitsientini pasayish o‘rnini aniqlandi.

Kalit so‘zlar. Vegetativ asab tizimi, MDA, katalaza, MSM254, MSM280 FSh, LH, estradiol, progesteron.

Kirish. Oxirgi 10 yil davomida gipoksiya va ishimik jaraenlarda, klinik o‘lim va postreanimatsion davrda organizmda, MNT, ANT, endokrin tizimi, proksidant, antioksidant tizimi yo‘nalishida yuzaga keladigan qonuniylatlarni o‘rganish va yuzaga keladigan yuzaga keladigan o‘zgarishlarni oldini olish maqsadida muxim yutuqlarga erishildi [4, 8,10].

Oxirgi yillarda klinik o‘lim va postreanimatsion jaraenda MNT gipokamp tekisligda yuzaga keladigan o‘zgarishlar va ularni oldini olish yuzasida retseptorlarning ekspressiyasi; xujayra tekisligida, mitoxondriya tekisligida yadro tekisligida yuzaga keladigan o‘zgarishlar; va yuzaga keladigan o‘zgarishlarni oldini olish bo‘yicha ishlar olib borilib yuqori darajali yutuqlarga erishildi [1, 2]. SHu bilan bir qatorda postreanimatsion davrda hujayra shikastlanishlarning asosiy mexanizmlari aniqlandi [3,5]. Bu davrda gipotalamo-gipofizar, hamda endokrin tizimda ximoya moslashuv reaksiyasi mexanizmlari, va asoratlari yoritilgan [6, 9].

O‘ta yuqori ekstremal faktorlarnig ta’siri oqibatida yuzaga kelgan klinik o‘lim va postreanimatsion davrda neyrogen, gumoral idora qilishning izdan chiqishi va buzilishi, kaytar nazort qilish jarayonlarning ta’surotga mos kelmasliklari asosida markazlarda yuzaga keladigan integrativ boshkaruvning buzilishini yuzaga keltirishi ehtimoldan holi emas.

Olimlarning ilmiy tadqiqoti oqibatida olgan ma’lumotlariga e’tibor bersak bu jarayon markaziy nerv tizimi, avtanom nerv tizimi, endokrin tizimi, shu bilan bir

katorda bu tizimlarning integrativ boqliqligini buzilishi oqibatida proksidant tizimi, antioksidant tizmidagi uzgarishlarga bog'liq bo'lib, gormonlarning sintezi, kumilyasiyasi, konga sekretsiya kilinishi va gormonlarni transporti, xujayralarga legant retseptorlar orqali spetsifik ta'sir etishi, metabolizmi, inaktivatsiyasi, va chiqarib ekskretsiyasi hamda xujayra yuzasidagi spetsifik retseptorlarining izdan chiqishi bilan bog'liqdir. [7]. Postreanimatsion kasallik davrida organizm visseral tizimining neyrogumoral boshqaruv, hamda bu tarkbiy kismlarda yuzaga keladigan o'zgarishlar muammosi hanuzgacha to'liqligicha o'rganilmagan. Izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadi, klinik o'lim va shu bilan bir qatorda reanimatsiya jarenlarida, postreanimatsion davrida endokrin tizimi faoliyatining buzilishi haqida sanoqli izlanishlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, postreanimatsion davrda reproduktiv tizimda yuzaga keladigan o'zgarishlarning mexanizmini aniqlash va tibbiyot amaliyotiga tadbiq etish uchun keyingi tadqiqotlar zarurligini taqozo etadi.

Ishning maqsadi. Urg'ochi kalamushlarning diestrus davrida 10 daqiqali klinik o'limdan keyingi postreanimatsion davrda vegetativ nerv tizimi, proksidant, antioksidant tizimlari, endogen intoksikatsiya, hamda reproduktiv tizim gormonal ko'rsatkichlarida o'zgarishlarni aniqlash..

Tadqiqot ob'ekti. Izlanish voyaga etgan urg'ochi 10 ta vazni 150-180 gr tashkil etgan zotsiz oq kalamushlarda olib borildi va ularda klinik o'lim jaraenida adenogipofizning veta va del'ta bazofil xujayralarida yuzaga keladigan morfofunksional reaktivlik o'rganildi.

Tadqiqot usullari. Klinik o'lim va postreanimatsion kasallik Korpachev V.G.(1982) usuli yordamida modellashtirilda va shu bilan bir qatorda avtanom nerv tizimining reaktivligi, betta va del'ta bazofil xujayralaridagi morfofunksional aktivligi, kondagi MDA miqdori, katalza miqdori, MSM254 va MSM280 oqsilni chidamlik koeffitsienti dinamikasi o'rganildi. Statistik taxlil Microsoft Office – Excel 2000 standart paktei erdamida amalga oshirildi.

Olingan natijalar va uning muxokomasi. 10 daqiqali klinik o'limdan keyingi postreanimatsion davrning 24 soatida tajribadagi xayvonlarning umumy xolti og'ir, insperator xansirash kuzatiladi. Kurinishishi yoqimsiz ter qoplamlarida tuklari xo'rpaygan, ta'sirotga nisbatan keskin ko'zgaluvchan. Vegetativ ner tizimining reaktivligi o'rganilganda yurak urishlar soni intakt xayvonlarning ko'rsatkichiga nisbattan bir daqiqada $646,8 \pm 3,6$ taga ($P < 0,01$), nafas olishlar soni esa bir daqiqada $110,4 \pm 1,5$ taga ($P < 0,05$) oshgan bo'lib, Xildebrant koeffitsienti esa $5,9 \pm 0,1$ ni tashkil etdi. Bu vaqtida hayvonlar qonida gonadotrop gormonini aniqlaganda: intakt xayvonlarga nisbattan folikulani stimullovchi gormonni miqdori $222,4 \pm 14,3$

ME/ml. gacha ($P<0,01$), LG esa $27,0\pm0,3$ ME/ml gacha ($P<0,001$), estradiol gormonining mqdori $103,8\pm14,3$ pg/ml gacha ($P<0,001$), progesteron gormonining miqdori esa $24,6\pm3,6$ nmol/ml gacha ($P<0,01$), oshgani aniqlandi.

Qonda proksidant tizimida MDA miqdorini oldingi guruhlarga nisbattan ortganligi kuzatilib $3,1\pm0,5$ nmol/ml tashkil etdi ($P<0,01$). antioksidant tizimida katalazning aktivligini normaga nisbattan $27,2\pm1,3$ nmol/ml.min.gacha ($P<0,01$) kamaygan bo'lib, MDA/katalazaga nisbat kofitsienti esa $0,12\pm0,02$ gacha oshgani aniqlandi ($P<0,01$). Bu vaqtida endogen intoksikatsiya ko'rsatkichda intakt xayvonlar ko'rsatkichiga nisbattan MSM254 $-0,580\pm0,01$ sh.bir. gacha ($P<0,001$), MSM280 $-0,439\pm0,01$ ($P<0,001$), sh.bir.gacha ortganligi kuzatilib, oqsilni chidamlik koefitsientini sezirarli darajada $0,76\pm0,02$ gacha pasayganligi aniqlandi ($P<0,05$).

Postreanimatsion davrning ettinchi kuniga kelib, tajribadagi xayvonlarning umumy xolti o'rtacha, ko'rinishishi yoqimli, qoplamlarida tuklari xo'rpaygan, ta'sirotga nisbatan ko'zgaluvchan. Vegetativ ner tizimining reaktivligi o'rganilganda yurak urishlar soni intakt xayvonlarning ko'rsatkichiga nisbattan bir daqiqada $509,4\pm3,2$ tani, nafas olishlar soni esa bir daqiqada $99,8\pm2,7$ tani tashkil etdib oldingi guruxga nisbattan kamayganligi aniqlandi ammo bu kursatkichlar intakt guruxidagi xayvonlarniing ko'rsatikichidan sezirali darajada yukori xolda saqlanganligi kuzatildi ($P<0,05$). Xildebrant koeffitsienti esa $5,9\pm0,2$ ni tashkil etdib intakt xayvonlar ga nisbattan ustunligi aniqlandi ($P<0,05$).

Postreanimatsion davrni 7- kunida kalamushlar organizmida simpatik nerv tizimining ustunligni saqlanganligi aniqlandi.Bu vaqtida hayvonlar qonida gormonlar miqdori aniqlaganda ularning miqdori oldingi guruhga nisbattan kayganligi aniqlandi. Ammo intakt xayvonlarga nisbattan folikulani stimullovchi gormonni miqdori yuqori darajada $207,6\pm5,9$ ME/ml. tekislikda ($P<0,01$), LG esa $23,1\pm0,4$ ME/ml tekislikda ($P<0,001$), estradiol gormonining mqdori esa $75,58\pm0,4$ pg/ml tekislikda ($P<0,05$), saqlangan bulib, progesteron gormonining miqdori esa $10,9\pm0$, nmol/ml gacha kamaygan bo'lib intak guruhidagi xayvonlar ko'rsatkichidan sezirarli farq qilmadi ($R>0,05$). Qonda proksidant tizimida MDA miqdorini oldingi guruhlarga nisbattan $1,91\pm0,1$ nmol/mlgacha ($P<0,05$), antioksidant tizimida katalazning aktivligini $31,8\pm0,7$ nmol/ml.min.gacha ($P<0,05$) MDA/katalazaga nisbat kofitsienti esa $0,05\pm0,02$ gacha kamayganligi aniqlanib, intak guruhdagi hayonlarni ko'rsatkichidan sezirarli darajad yuqori saqlanganligi aniqlandi ($P<0,05$). Bu vaqtida endogen intoksikatsiya ko'rsatkichda oldigi gurux xayvonlaning ko'rsatkichiga nisbattan MSM254 $-0,480\pm0,01$ sh.bir. gacha ($P<0,001$), MSM280 $-0,354\pm0,01$ ($P<0,01$), sh.bir.gacha,kamaygagligi aniqlanib

intakt hayvonlarning ko'rsatkichidan yukori darajada saqlanganligi kuzatildi ($P<0,001$), ($P<0,01$). Oqsilni chidamlik koefitsienti esa oldingi guruh xayonlarni ko'rastkichi tekisligida saqlanganligi aniqlani, ya'ni $0,73\pm0,04$ ni tashkil etib, bu ko'rsatkichlar intakt hayvonlarning ko'rsatkichidan sezirarli darajada yuqori saqlanganligi aniqlandi ($P<0,05$).

Postreanimatsion davrning 14-kuniga kelib, tajribadagi xayvonlarning umumy xolti o'rtacha, ko'rinishishi yoqimli, qoplamlarida tuklari xo'rpaygan, ta'sirotga nisbatan ko'zgaluvchan. Vegetativ ner tizimining reaktivligi o'rganilganda yurak urishlar soni postreanimatsion davrning birinchi kuniga nibattan bir daqiqada $575,2\pm4,0$ gacha ($P<0,001$), nafas olishlar soni esa bir daqiqada $99,2\pm1,14$ tagacha ($P<0,01$) kamagani aniqlandi va intakt guruhdagi xayvonlarning ko'rsatkichidan sezilarsiz darajada ustunlikka ega bo'lib ($R>0,05$). Xildebrant koeffitsienti esa $5,8\pm0,2$ ni tashkil etib intakt xayvonlar ga nisbattan ustunligi aniqlandi ($P<0,01$). YA'ni postreanimatsion davrni o'n to'rtinchini kunida kalamushlar organizmida simpatik nerv tizimining ustunligni saqlanganligi kuzatildi. Bu kunida simpatik nerv tizimining tonusini ustunligi ostida hayvonlar qonida gormonlar miqdori aniqlaganda, folikulani stimullovchi gormon miqdorini $184,1\pm7,9$ ME/ml.gacha ($R>0,05$) LG esa $20,2\pm0,7$ ME/ml ($P<0,01$), estradiol gormonining miqdori esa $72,6\pm0,6$ pg/ml gachaa ($P<0,01$) gacha kamaygan bo'lib, intakt guruhidagi hayvonlarni lo'rsatkichidan ancha yuqorida saqlanganligi aniqlandi. Progesteron gormonining miqdori esa $10,1\pm0,5$ nmol/ml gacha kamaygan ($P<0,05$), bo'lib intak guruhidagi xayvonlar ko'rsatkichidan sezirarli farq qilmadi ($R>0,05$).

Qonda proksidant tizimida MDA miqdorini oldingi guruhlarga nisbattan $1,39\pm0,04$ nmol/ml gacha ($P<0,05$), antioksidant tizimida katalazning aktivligini $31,8\pm0,5$ nmol/ml.min.gacha ($P<0,05$) MDA/katalazaga nisbat kofitsienti esa $0,04\pm0,001$ gacha ($P<0,05$) kamayganligi aniqlanib, intak guruhdagi hayonlarni ko'rsatkichidan sezirarli darajad yuqori saqlanganligi aniqlandi ($P<0,05$). Bu vaqtida endogen intoksikatsiya ko'rsatkichda oldigi gurux xayvonlaning ko'rsatkichiga nisbattan MSM254 $-0,325\pm0,01$ sh.bir. gacha ($P<0,001$), MSM280 $-0,242\pm0,003$ sh.bir.gacha ($P<0,001$), kamaygagligi aniqlanib intakt hayvonlarning ko'rsatkichidan yukori darajada saqlanganligi kuzatildi ($P<0,05$), ($R>0,05$). Oqsilni chidamlik koefitsienti esa oldingi guruh xayonlarni ko'rastkichi tekisligida saqlanganligi aniqlani, ya'ni $0,75\pm0,02$ ni tashkil etib, bu ko'rsatkichlar intakt hayvonlarning ko'rsatkichidan sezirarli darajada saqlanganligi aniqlandi ($P<0,05$).

Postreanimatsion davrning 21-kuniga kelib, tajribadagixayvonlarning ko'rinishishi yoqimli, qoplamlarida tuklari silliq, ta'sirotga nisbatan o'rtacha.

